

IQTIDORLI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI
TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOIIY MOSLASHUVI

Reyimbaeva Ayzada Maxmut qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining 1-bosqich talabasi
(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari va ularning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) muammolari tadqiq etiladi. Muallif iqtidorli bolalarda ko'p kuzatiladigan intellektual yuksalish va emotsional-ijtimoiy yetuklik o'rtasidagi nomutanosiblik (asinxron rivojlanish) masalasiga alohida urg'u beradi. Maqolada iqtidorli o'quvchilarning tengdoshlari va pedagoglar bilan muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinib, ularni maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashtirish uchun zamonaviy pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtidorli o'quvchilar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy moslashuv, adaptatsiya, asinxron rivojlanish, emotsional intellekt, ta'lim muhiti.*

XXI asr global transformatsiyalar va intellektual kapitallashuv davri sifatida inson resurslaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch — bu yuqori intellektual va ijodiy salohiyatga ega bo'lgan iqtidorli yoshlardir. Shu bois, ta'lim tizimining fundamental vazifalaridan biri nafaqat o'quvchilarga standart bilimlar majmuasini berish, balki ulardagi yashirin qobiliyatlar va iqtidor belgilarini barvaqt aniqlash, ularni tizimli rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratishdan iborat.

Biroq zamonaviy psixologiya va pedagogika fani oldida turgan eng murakkab muammolardan biri — bu iqtidorli o'quvchilarning ta'lim muhitiga va ijtimoiy realikka moslashishi (adaptatsiyasi) masalasidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori kognitiv salohiyat har doim ham shaxsning muvaffaqiyatli sotsializatsiyasini (jamiyatga integratsiyalashuvini) kafolatlamaydi. Aksincha, ko'p hollarda iqtidorli bolalar o'zlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari tufayli tengdoshlari, pedagoglar va hatto yaqin ijtimoiy qurshovi bilan muloqotga kirishishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu muammoning ilmiy va amaliy yechimini topish bugungi kun pedagogik psixologiyasining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida iqtidorli yoshlar bilan ishlash, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadi bevosita

intellektual yetuk avlodni tarbiyalash bilan bog'liqdir. Bu borada "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish bo'yicha keng ko'lamli vazifalarni belgilab berdi [1].

So'nggi yillarda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini institutsional jihatdan yangi bosqichga olib chiqish borasida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-martdagi PF-61-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni iqtidorli yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni ijtimoiy jihatdan rag'batlantirishda yangi burilish yasadi [2].

Shuningdek, davlat rahbarining 2025-yil 27-martdagi iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimotida bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta Prezident maktabi, 185 ta ixtisoslashtirilgan va 9 ta ijob maktabi faoliyat yuritayotgani, ulardagi ilg'or o'qitish tizimi umumta'lim maktablariga ham joriy etilayotgani alohida qayd etildi. Eng muhimi, ushbu taqdimotda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan yangi xalqaro andozadagi ta'lim dasturlari faqatgina fundamental va ixtisoslik fanlaridan iborat bo'lmasdan, balki:

"Yetakchilik va ijtimoiy faollikni o'rgatuvchi fanlar" majmuasini ham o'z ichiga olishi belgilangan.

Bu strategik yondashuv iqtidorli o'quvchilarning nafaqat intellektual (hard skills), balki ijtimoiy-emosional (soft skills) ko'nikmalarini rivojlantirish davlat miqyosidagi dolzarb pedagogik va psixologik vazifa ekanligini anglatadi. Zero, davlat tomonidan yaratilayotgan ushbu ulkan infratuzilma va imkoniyatlar doirasida iqtidorli o'quvchilarning maktab muhitiga silliq ijtimoiy moslashishi ularning kelajakda jamiyat munosib a'zolariga aylanishlarida fundamental rol o'ynaydi.

Ilmiy adabiyotlarda iqtidorli bolalar tabiati odatda kognitiv sohaning asenkron (nomutanosib) rivojlanishi bilan tavsiflanadi. L.S. Vygotskiy [3], J. Piage [4] va zamonaviy psixologlardan xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar iqtidorli bolalardagi intellektual yuksalish emotsional va ijtimoiy yetuklik bilan har doim ham sinxron (parallel) kechmasligini isbotlaganlar. Iqtidorli o'quvchining aqliy salohiyati 15 yoshli o'smir darajasida bo'lsa-da, uning hissiy reaksiyalari va ijtimoiy tajribasi o'zining real biologik yoshiga (masalan, 10 yoshga) teng bo'lishi mumkin.

Ushbu psixologik nomutanosiblik ta'lim jarayonida bir qator murakkab ijtimoiy-psixologik muammolarni va moslashuv inqirozlarini keltirib chiqaradi:

Muloqotdagi to'siqlar va begonalashuv: Iqtidorli o'quvchilar o'zlarining qiziqish doirasi va fikrlash chuqurligi bo'yicha tengdoshlaridan keskin ajralib turadilar. Bu holat oddiy sinf muhitida ularning zerikishiga, tengdoshlari bilan umumiy til topa olmasligiga va natijada ijtimoiy yakkalanishga (izolyatsiyaga) olib keladi.

Konformizm va "yashirin iqtidor" muammosi: Ayrim iqtidorli o'quvchilar guruh (sinf) tomonidan rad etilmaslik va hamma qatori bo'lish (sotsial adaptatsiya hosil qilish) uchun o'zlarining yuqori qobiliyatlarini ataylab yashirishga, past ko'rsatkichlar namoyish etishga majbur bo'ladilar. Bu esa shaxs ichki salohiyatining so'nishiga olib keladi.

Perfeksionizm va yuqori tashvishlilik: O'ziga va atrofdagilarga nisbatan o'ta yuqori talabchanlik iqtidorli bolalarda doimiy muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquvini (fobiya), nevroz va stress holatlarini keltirib chiqaradi.

Shu nuqtayi nazardan, iqtidorli bolalarni faqatgina intellektual tomondan yuksalishini kuzatish yetarli emas; ularni maktab jamoasiga, ijtimoiy guruhlariga muvaffaqiyatli moslashtirish, emotsional intellektini oshirish tizimli ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish asosida, ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ijtimoiy moslashuvi (adaptatsiyasi) muammolarini aniqlash hamda ularni umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab muhitiga muvaffaqiyatli sotsializatsiya qilishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik model va amaliy tavsiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu belgilangan maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida quyidagi aniq ilmiy va amaliy vazifalarni hal etish lozim:

Ilmiy-nazariy tahlil: Iqtidorli bolalar psixologiyasi va ularning ijtimoiy adaptatsiyasiga oid xalqaro hamda mahalliy ilmiy yondashuvlar, nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish va muammoning o'rganilganlik darajasini baholash;

Psixologik xususiyatlarni differensiallash: Iqtidorli o'quvchilarda intellektual yuksalish va emotsional-ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi nomutanosiblikni (asinxronlikni) keltirib chiqaruvchi ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy) omillarni tizimlashtirish;

Empirik tadqiqot o'tkazish: Zamonaviy maktab muhitida iqtidorli o'quvchilarning tengdoshlari, pedagoglar va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan adaptiv to'siqlarni (bulling, konformizm, izolyatsiya) eksperimental usullar yordamida aniqlash va tahlil qilish;

Davlat dasturlari integratsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-61-sonli Farmonida keltirilgan yoshlarning "ijtimoiy faolligi va yetakchilik ko'nikmalari"ni oshirish talablaridan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga moslashuvchanlik elementlarini kiritish mexanizmini asoslash;

Amaliy model va tavsiyalar loyihasi: Maktab psixologlari va pedagoglari uchun iqtidorli bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi dastur (model) va metodik tavsiyalar majmuasini shakllantirish.

Iqtidorlik muammosini tizimli tadqiq etish, eng avvalo, uning ko'p komponentli tuzilishini hamda kognitiv va emotsional o'lchamlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Zamonaviy psixologiya fani iqtidorga faqatgina yuqori intellekt koeffitsiyenti sifati poydevorida qaramaydi, balki uning murakkab tarkibiy qismlarini inobatga oladi. Xususan, Jozef Renzullining "Uch halqa" modelida asoslab berilganidek, iqtidor o'rtachadan yuqori intellektual qobiliyat, yuksak darajadagi kreativlik va topshiriqqa sodiqlik kabi xususiyatlarning kesishish nuqtasida namoyon bo'ladi [5]. Biroq kognitiv sohadagi bunday o'ziga xos ilgarilash iqtidorli o'quvchining ichki psixologik dunyosida kutilmagan murakkabliklarni va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Bu borada fransuz psixologi Jan-Sharl Terrasye tomonidan kiritilgan asinxron rivojlanish (disinxroniya) konsepsiyasi alohida ilmiy qimmatga ega bo'lib, unga ko'ra iqtidorli bolada intellektual, hissiy va jismoniy tizimlar bir xil tezlikda rivojlanmaydi [6]. Mazkur holat o'quvchining aqliy salohiyati o'z yoshidan bir necha yil ilgarilab ketgani holda, uning emotsional reaksiyalari va ijtimoiy tajribasi o'zining biologik yoshiga mos yoki hatto undan orqada bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu asinxronlik fonida iqtidorli o'quvchilarning asab tizimi tashqi va ichki stimullarga nisbatan o'ta sezgirliги bilan ajralib turadi. Kajimej Dabrovskiyning o'ta yuqori ta'sirchanlik nazariyasi ushbu holatni intellektual, imojinar, emotsional, psixomotor va hissiy sohalaridagi o'ta sezgirlik orqali asoslaydi. Iqtidorli bola nafaqat haqiqatni izlash va tinobsiz savollar berishga ehtiyoj sezadi, balki chuqur hamdardlik, yuqori jismoniy energiya hamda atrofdagi tovushlar va ranglarni o'ta kuchli qabul qilish xususiyatlariga ham ega bo'ladi [7]. Bunday chuqur hissiy sezgirlik va intellektual asinxronlik keyinchalik ularning ijtimoiy muhitga, xususan, ta'lim jarayoniga moslashuvda asosiy krizis nuqtalari bo'lib xizmat qiladi va ularni an'anaviy maktab muhitida o'ziga xos qiyinchiliklar bilan yuzlashtiradi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsning muhit sharoitlariga facol ko'nikishi va guruh a'zolari bilan konstruktiv munosabatlar o'rnata olish jarayoni bo'lsa-da, iqtidorli o'quvchilar uchun umumta'lim maktablaridagi an'anaviy ta'lim muhiti ko'pincha qulay adaptatsiya maskani bo'la olmaydi va bu holat tizimli ravishda ijtimoiy dezadaptatsiyani keltirib chiqaradi. Dezadaptatsiyaning shakllanishi bir necha mikro-ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, ulardan birinchisi va eng asosiysi tengdoshlar guruhi bilan muloqot inqirozidir. Iqtidorli bola o'z yosh guruhining yuzaki qiziqishlarini zerikarli deb hisoblasa, tengdoshlari esa uni g'alati deb atab, jamoadan chetlatishga va natijada ruhiy tazyiq (bulling) o'tkazishga moyil bo'ladilar. Guruh tomonidan rad etilishdan qo'rqqan va yolg'izlikdan charchagan iqtidorli o'quvchi ko'p hollarda "Xameleon effekti" yoki ijtimoiy konformizmni tanlashga majbur bo'ladi. Ya'ni, u sinf darajasiga moslashish va hamma qatori bo'lish uchun o'z iqtidorini qasddan yashira boshlaydi, darslarda oddiy javoblar beradi va o'z intellektini sun'iy ravishda pasaytiradi. Mazkur fenomen psixologiyada o'z salohiyatidan past natija ko'rsatish

sindromi deb nomlanib, u uzoq muddatda shaxs iqtidorining butkul soʻnishiga olib keladi.

Bundan tashqari, pedagoglarning notoʻgʻri yondashuvi va qolipli stereotiplari ham moslashuv inqirozini chuqurlashtiradi. Koʻpgina oʻqituvchilar iqtidorli bolani faqatgina itoatkor va barcha fanlardan aʼlo bahoga oʻqiydigan oʻquvchi deb tasavvur qilganlari holda, kreativ va intellektual iqtidorli bolalarning nostandart fikrlashlari, dars xonasidagi qoliplarga boʻysunmasliklari va oʻqituvchining fikriga shubha bilan qarashlarini salbiy qabul qiladilar. Pedagog tomonidan bunday oʻquvchiga nisbatan koʻrsatilgan bosim yoki eʼtiborsizlik bolada taʼlim tizimiga va ijtimoiy realikka nisbatan kognitiv dissonans hamda destruktiv reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, iqtidorli oʻquvchilarning maktab muhitiga samarali ijtimoiy moslashuvini taʼminlash faqatgina ularning intellektini yuksalishiga emas, balki emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan kompleks psixologik-pedagogik modellarni joriy etishni talab qiladi. Davlatimiz rahbarining qarorlarida belgilanganidek, oʻquv dasturlariga yetakchilik va ijtimoiy faollik koʻnikmalarini kiritish ushbu muammoning strategik yechimidir.

Muvaffaqiyatli adaptatsiya modelini shakllantirishda anʼanaviy pedagogik yondashuvdan voz kechib, integrativ-adaptiv ilmiy yondashuvga oʻtish hamda ilmiy-pedagogik differensiatsiyani (akkeleratsiya va boyitish) joriy etish lozim. Boyitish strategiyasi doirasida oʻquvchiga individual tadqiqot loyihalari va muammoli topshiriqlar berilishi, u oʻz intellektini sinfdoshlariga qarama-qarshi qoʻymagan holda jamoaviy loyihalarda intellektual yetakchi rolini bofay etishni oʻrganishi zarur. Maktab psixologik xizmati doirasida esa iqtidorli oʻquvchilar uchun frustratsiyaga chidamlilik, kommunikativ moslashuvchanlik va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan *soft skills* (gumanitar koʻnikmalar) treninglari tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda oʻquvchining moslashuv dinamikasini nazorat qilish uchun faqatgina fan testlari yetarli emas, balki taʼlim testologiyasi va psixodiagnostikasi uygʻunlikda harakat qilishi shart. Oʻquvchining kognitiv rivojlanishi hamda uning ijtimoiy-psixologik statusi, xavotirlilik darajasi va adaptivlik koeffitsiyenti muntazam ravishda pedagogik-psixologik monitoringdan oʻtkazib borilishi zarur. Xulosa qilib aytganda, iqtidorli oʻquvchilarning ijtimoiy moslashuvi muammosini hal etish — bu nafaqat maktab psixologining, balki butun taʼlim ekotizimining vazifasidir. Davlat darajasida yaratilayotgan ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablari tajribasini umumtaʼlim maktablariga integratsiya qilish orqali biz iqtidorli bolalarning ijtimoiy begonalashuvini oldini olishimiz va ularning intellektual salohiyatini mamlakat taraqqiyoti uchun toʻlaqonli yoʻnaltirishimiz mumkin.

Xulosa: Tizimli ravishda olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni koʻrsatadiki, iqtidorli oʻquvchilarning taʼlim jarayonidagi ijtimoiy moslashuvi muammosi zamonaviy pedagogik psixologiyaning eng murakkab va kechiktirib

bo'lmaydigan masalalaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, yuqori intellektual salohiyat shaxsning jamiyatda va maktab jamoasida o'z-o'zidan muvaffaqiyatli sotsializatsiyasini ta'minlamaydi, aksincha, kognitiv va emotsional sohalar o'rtasidagi asinxron rivojlanish hamda o'ta yuqori ta'sirchanlik xususiyatlari bolada jiddiy moslashuv inqirozlarini keltirib chiqarishi mumkin. Iqtidorli o'quvchining maktab muhitida duch keladigan tengdoshlar tomonidan rad etilishi, "Xameleon effekti" tufayli o'z qobiliyatlarini qasddan yashirishi hamda pedagogik stereotiplarning salbiy ta'siri kabi omillar nafaqat shaxs salohiyatining so'nishiga, balki chuqur ruhiy jarohatlar va ijtimoiy yakkalanishga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy ta'lim qoliplaridan voz kechib, iqtidorli o'quvchining nafaqat intellektual, balki emotsional intellektini ham rivojlantirishga qaratilgan integrativ-adaptiv yondashuvni joriy etish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida belgilangan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularda yetakchilik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish talabi ushbu tadqiqotning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Iqtidorli o'quvchilarning silliq sotsializatsiyasini ta'minlash uchun maktablarda differensial o'quv dasturlari bilan bir qatorda, ularning frustratsiyaga chidamliligi va kommunikativ moslashuvchanligini oshiruvchi psixologik treninglar tizimli yo'lga qo'yilishi zarur. Bunda pedagogik testologiya va psixodiagnostika usullarining uyg'un monitoringi o'quvchining kognitiv hamda hissiy holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Yakuniy xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilg'or tajribalarini umumta'lim maktablari amaliyotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish va maktab ekotizimida iqtidorli bolalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan himoya qilish orqali ularning salohiyatini mamlakat taraqqiyoti uchun to'laqonli safarbar etuvchi yangi model poydevori yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Выготский Л. С. Вопросы детской психологии. — Санкт-Петербург: Союз, 2004. — 224 с.

4. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. — Москва: Просвещение, 1994. — 680 с.
5. Renzulli J. S. The Three-Ring Conception of Giftedness: A developmental model for creative productivity // *Conceptions of giftedness*. — 1986. — Vol. 53. — P. 53-92.
6. Terrassier J. C. Dyssynchrony - uneven development // *Highly Gifted Children*. — 1985. — P. 45-51.
7. Dabrowski K. *Positive Disintegration*. — London: Little, Brown & Co, 1964. — 286 p.